

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib



Dastlabki ma'lumotlar

Toshkent shahri bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **15 384,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **4,6 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **4 381,0** mlrd. so'mni, o'zgarish sur'ati (**96,7 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **11 003,1** mlrd. so'mni (**4,2 %** ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **394,0** mlrd. so'mni (**24,1 %** ga kamaydi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT

Toshkent shahri bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **15 384,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **95,4 %** ni tashkil etdi.

Shahar chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **82,7 %** va yirik korxonalar hissasiga **17,3 %** to'g'ri keldi.





ENG YUQORI ULUSH

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani **16,7 %** ulush bilan **2 563,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Shahar chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yashnobod tumani **6,9 %** ulush bilan **10 059,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **11 003,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **71,5 %** ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Bektemir (94,7 %), Uchtepa (90,8 %), Yunusobod (86,8 %), Mirzo Ulug`bek (82,6 %), Olmazor (77,1 %), Shayxontohur (76,0 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan Toshkent shahrining barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Mirobod (102,0 %), Bektemir (98,3 %), Sirg'ali (98,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahar	15 384,1	95,4	4 381,0	96,7	11 003,1	94,9
Uchtepa	1 456,9	88,3	133,5	78,6	1 323,4	89,4
Bektemir	1 291,3	98,3	67,9	126,8	1 223,4	97,1
Yunusobod	1 592,8	94,8	209,7	77,8	1 383,0	98,1
Mirzo Ulug'bek	1 080,5	93,5	188,1	76,4	892,4	98,1
Mirobod	1 206,9	102,0	455,0	134,4	751,9	89,0
Shayxontohur	1 747,4	96,5	419,9	85,6	1 327,5	100,6
Olmazor	1 074,2	93,7	245,6	61,1	828,7	111,2
Sirg'ali	1 179,0	98,0	418,8	107,4	760,2	93,4
Yakkasaroy	1 132,9	92,6	613,5	97,7	519,5	87,3
Yashnobod	1 059,1	97,3	359,7	110,8	699,3	91,6
Chilonzor	2 563,2	96,1	1 269,2	104,5	1 293,9	89,1

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **3,3 %**ga kamaydi va **4 381,0** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **28,5 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **11 003,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **4,2 %**ga kamaydi. Toshkent shahri miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **71,5 %**ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Bektemir (94,7 %), Uchtepa (90,8 %), Yunusobod (86,8 %), Mirzo Ulug'bek (82,6 %), Olmazor (77,1 %) va Shayxontohur (76,0 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 28,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Yakkasaroy (54,1 %), Chilonzor (49,5 %), Mirobod (37,7 %) va Sirg'ali (35,5 %) tumanlarida kuzatildi.



TOSHKENT SHAHRI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


2020-yil yanvar-may oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 407,0** ming so'm (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **1,3** % ga kamaydi).

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Bektemir (22 149,1 ming so'm), Yakkasaroy (6 056,6 ming so'm) va Mirobod (5 508,0 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




District	Hajm, ming so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Toshkent sh.	3 407,0	101,3
Uchtepa	2 949,9	101,9
Bektemir	22 149,1	100,6
Yunusobod	2 757,2	100,4
Mirzo Ulug'bek	2 405,2	100,3
Mirobod	5 508,0	102,3
Shayxontohur	2 953,9	107,0
Olmazor	1 567,9	102,9
Sirg'ali	3 287,6	97,7
Yakkasaroy	6 056,6	99,9
Yashnobod	2 473,9	97,6
Chilonzor	5 127,2	101,7

Asosiy tarkib, foizda




Toshkent shahri bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **394,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **24,1** % ga kamaydi. Shu jumladan, 1 bozor va 1 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **370,8** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **78,4** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **23,2** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **50,3** %) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yilning yanvar-may oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **370,8** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **23,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahar	394,0	75,9	370,8	78,4	23,23	50,3
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	22,4	72,2	22,4	72,2	-	-
Bektemir	129,9	69,0	106,7	75,1	23,21	50,3
Yunusobod	64,5	92,4	64,5	92,4	-	-
Mirzo Ulug'bek	30,9	95,5	30,9	95,5	-	-
Mirobod	7,7	52,9	7,7	52,9	-	-
Shayxontohur	33,7	121,9	33,7	121,9	-	-
Olmazor	8,3	79,8	8,3	80,2	0,02	25,4
Sirg'ali	14,5	63,1	14,5	63,1	-	-
Yakkasaroy	12,6	66,0	12,6	66,0	-	-
Yashnobod	64,3	65,5	64,3	65,5	-	-
Chilonzor	5,2	101,0	5,2	101,0	-	-

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



5,3
mlrd. so'm

Tuzlamalar



174,1
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari



13,7
mlrd. so'm

Quriltgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

25,7
mlrd. so'm




Non va non
mahsulotlari



22,7
mlrd. so'm

Sut va sut
mahsulotlari

4,7
mlrd. so'm



Tuxum

63,2
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

0,4
mlrd. so'm



Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-xashaklar

2020-yilning yanvar-may oylarida Toshkent shahrining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **370,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**174,1** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

5,1
mlrd. so'm



Ziravorlar

48,6
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

7,4
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

2020-yilning yanvar-may oylarida Toshkent shahrining barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **23 227,4** mln. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 15 423,9 mln. so'mni, qo'y va echkilar 6 489,4 mln. so'mni, otlar 1 286,0 mln. so'mni, parrandalar 19,2 mln. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2020-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **4,3 %** ni tashkil etib, **657,2** mlrd. so‘mga yetdi va 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **33,6 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **73,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘sish sur‘ati, foizda



	Jami, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahar	657,2	66,4	177,7	83,6	479,5	61,7
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	60,0	69,0	4,6	82,6	55,4	68,1
Bektemir	27,2	51,4	3,1	96,6	24,1	48,5
Yunusobod	81,4	59,5	31,0	52,7	50,4	64,7
Mirzo Ulug'bek	72,9	75,1	11,3	122,5	61,6	70,1
Mirobod	49,1	59,5	5,5	77,6	43,7	57,8
Shayxontohur	93,4	78,0	35,3	106,6	58,2	67,1
Olmazor	56,5	92,0	11,0	166,6	45,5	74,2
Sirg'ali	67,3	53,8	32,9	48,0	34,5	60,8
Yakkasaroy	39,8	69,3	12,7	85,6	27,2	63,6
Yashnobod	29,0	57,6	4,6	83,3	24,4	54,5
Chilonzor	80,5	67,3	25,9	372,1	54,6	48,5

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik
korxonalar



Mikrofirma va
kichik korxonalar

Toshkent shahri bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **20 429,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **5,5 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **5 003,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **177,3 %**), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **15 426,2** mlrd. so'mni (**17,9 %** ga kamayish), shundan mikrofirmalar savdo tovar aylanmasi **8 089,5** mlrd. so'mni (**16,3 %** ga kamayish) va kichik korxonalar savdo tovar aylanmasi **7 336,7** mlrd. so'mni (**19,6 %** ga kamayish) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Yashnobod tumani (383,9 %), Sirg'ali tumani (376,5 %), Chilonzor tumani (310,8 %) kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Yashnobod tumani (170,8 %) Bektemir tumani (116,0 %), Sirg'ali tumani (107,4 %) qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahar	20 429,6	94,5	5 003,4	177,3	15 426,2	82,1
Uchtepa	1 216,3	95,8	37,3	277,3	1 179,0	93,8
Bektemir	387,3	116,0	9,6	71,8	377,7	117,9
Yunusobod	1 472,8	86,9	175,2	84,9	1 297,6	87,2
Mirzo Ulug'bek	2 050,4	73,0	369,9	83,5	1 680,4	71,0
Mirobod	2 258,7	91,9	391,3	175,0	1 867,3	83,6
Shayxontohur	1 339,7	65,3	82,6	145,2	1 257,1	63,0
Olmazor	2 652,4	94,1	763,7	132,5	1 888,7	84,3
Sirg'ali	1 342,5	107,4	279,2	376,5	1 063,3	90,4
Yakkasaroy	2 296,3	84,6	704,2	117,5	1 592,2	75,3
Yashnobod	3 031,2	170,8	1 444,6	383,9	1 586,6	113,4
Chilonzor	2 382,0	97,6	745,7	310,8	1 636,3	74,3

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-may oylari yakuniga ko‘ra, **20 429,6** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **5,5** % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **94,5** % ni tashkil etdi.

Bu ko‘rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Yashnobod tumani (170,8 %) Bektemir tumani (116,0 %), Sirg‘ali tumani (107,4 %) yuqori bo‘lgan. Eng past ulush esa Shayxontohur (65,3%) tumaniga to‘g‘ri keldi.

